O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Agrobiotexnologiyalar va oziq- ovqat xavfsizligi institute

Ro'yxatga olindi:
№ БД-60811000
2024 yil 09 30

"TASDIQLAYMAN"
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2024 yil "__"_____

HIMOYALANGAN YER MEVA-SABZAVOTCHILIGI 1-2 QISM FAN DASTURI

Bilim sohasi:	800000 –Qishloq, o'rmon baliq xo'jaligi va veterenariya
Ta'lim sohasi:	810000 – Qishloq xo'jaligi
Ta'lim yo'nalishi:	60811000 – Meva-sabzavotchilik va uzumchilik

Fan /modul kodi HEMS1510 HEMS1610	O'quv yili 2026-2027	Semestr 5-6	YESTS – kreditlar 8 ta
Fan /modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftasiga dars soatlari 4 soat
Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama soat
Himoyalangan yer meva-sabzavotchiligi 1-2 qism	108	132	240

	Fanning maqsadi (FM)
FM1	**Fanni o'qitishdan maqsadi.** Himoyalangan yer meva-sabzavotchiligi fanini talabalar o'rganishadi. Talabalarga himoyalangan yerlarda meva-sabzavotlarni yetishtirishning texnologiyasi bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikma berishdan iborat. Himoyalangan yerlarda meva-sabzavotlarni yetishtirishda asosiy xayotiy omillarni ta'minlash, tuproq aralashmasini tayyorlash, o'g'itlarni qo'llash va tuproqsiz sharoitda yetishtirish usullari, himoyalangan joy maydonlaridan unumli foydalanish, ko'chat hamda turli sabzavot mahsulotlarni yetishtirish texnologiyalarini o'rgatishdan iborat. **Fanning vazifasi.** Himoyalangan yerlarda meva-sabzavot ekinlari mavsumdan tashqari vaqtlarda yetishtirish, ochiq va himoyalangan yerlarga ko'chat yetkazib berish, issiqxonalarda kam tarqalgan sabzavot va ko'kat ekinlarini yetishtirishni o'zlashtirish.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**	
Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)	
5-semestr	
M1	**Kirish. Himoyalangan yer meva-sabzavotchiligini ahamiyati, xususiyatlari va rivojlantirish istiqbollari.** Fanning predmeti, maqsad vazifalari. Himoyalangan yer sabzavotchiligining qimmatli xususiyatlari.
M2	**Himoyalangan yer meva-sabzavotchiligining hozirgi holati va uni.** Mamlakatimizdagi issiqxona maydonlari. Himoyalangan joy sabzavotchiligi sohasining rivojlanish istiqbollari. Mavsumdan tashqari vaqtlarda sabzavot yetishtirish miqdorlari.
M3	**Chet mamlakatlarda himoyalangan yer meva- sabzavotchiligi.** Horijiy mamlakatlarda himoyalangan yer sabzavotchiligi ko'rsatkichlari, oziq-ovqat havfsizligidagi o'rni va imkoniyatlari.
M4	**Himoyalangan yerlarda tuproqli ekinlarni mineral oziqlantirish xususiyatlari.** Himoyalangan yerlarda sabzavotlarni yetishtirishda foydalaniladigan tuproq aralashmalari va ularga qo'yiladigan talablar. Tuproq aralashmasini tarkibi va komponetlar tavsifi. Tuproq aralashmasini tayyorlash uni sog'lomlashtirishni zamonaviy usullari va undan foydalanish. Himoyalangan yerlarda sabzavotlarni tuproq aralashmasida yetishtirishda o'g'itlarni qo'llash zamonaviy usullari. O'g'itlash sistemasi. Asosiy o'g'itlashda foydalaniladigan o'g'itlar ularni me'yorlari. Sabzavotlarni qo'shimcha oziqlantirish usullari. Mikroelementlarni qo'llash.
M5	**Kichik hajmli gidroponikaning afzalligi va ahamiyati.** Kichik hajmli gidroponika qurilmalarini turlari ularni tuzilishi va ishlash prinsipi. Kichik hajm gidroponikani tarqalishi. Kichik hajmli gidroponikada foydalaniladigan substratlar.
M6	**Kichik hajmli gidroponikada qo'llaniladigan substratlar tavsifi.** Sabzavotlarni himoyalangan joylarda tuproqsiz sharoitda yetishtirish zamonaviy usullari va uni moxiyati. Sabzavotlarni ximoyalangan yerlarda organik substratlarda xemakultura yetishtirish xususiyatlari haqida tushuncha.
M7	**Ozuqali eritmalar.** Sabzavotlarni yetishtirishda foydalaniladigan organik substratlar. Sabzavotlarni yuqori tarifda va somon toylarda yetishtirish xususiyatlari. Sabzavotlarni daraxt qipig'i va po'stlog'ida yetishtirish. Sabzavotlar sholi tuponida yetishtirish. Sabzavot ekinlarini maxsus substratlarda yetishtirish xususiyatlari. Sabzavotlarni organik substratlarda yetishtirishda foydalaniladigan oziqali eritmalar.
M8	**Kichik hajmli gidroponikada ekin yetishtirish xususiyatlari.** Kichik hajmli gidroponikada foydalaniladigan substratlar. Adler sabzavotchilik tajriba stansiyasida yaratilgan kichik hajmli gidropon qurulma uni tuzilishi va ishlash prinsipi.Kichik hajmli gidropon issiqxonalarni ekishga tayyorlash. Substratlarni foydalanishga tayyorlash. Kichik hajmli gidropon issiqxonalarda o'simliklarni oziqlantirish uchun foydalaniladigan oziq eritmalar, ularni tayyorlash va qo'llash usullari.
M9	**Inshootlarda yorug'lik rejimini shakllantiruvchi yorug'lik o'tkazuvchan materiallarga qo'yiladigan talablar.** Himoyalangan joylarda qo'llaniladigan yorug'lik o'tkazuvchan materiallar (oyna, polimer plyonkalar, va boshqalar) ularni xususiyatlari. Himoyalangan joylarda qo'llash uchun foydalaniladigan polimer materiallar. Yorug'lik o'tkazuvchan materiallarga qo'yiladigan asosiy talablar.
M10	**Himoyalangan joy inshootlarida mikroiqlim sharoitlari.** Himoyalangan joylarda taminlanadigan asosiy hayotiy omillar, ularni ahamiyati, hosil hajmi va sifatiga ta'siri. Mikroiqlim haqida tushuncha va uni taminlashda tashqi muhitni ta'siri. Asosiy mikroiqlim omillari va ularni boshqa omillarga ta'siri.
M11	**Himoyalangan joylarda meva-sabzavotlarni yorug'likka bo'lgan talabi.** Yorug'lik targ'ibotini o'simliklar uchun ahamiyati. Yorug'likka talabiga ko'ra sabzavotlarni guruhlash. Uni taminlash va sozlash usullari.
M12	**Haroratni asosiy me'yorlari (maqbul harorat, agronomik va biologik maksimum va minimum). Issiqlik tartiboti uni ahamiyati.** Himoyalangan joy inshootlarini isitish usullari. Himoyalangan joylarda yetishtiriladigan o'simliklar uchun harorat chegaralari. Biologik minimum va maksimum, agronomik minimum va maksmum haqida tushuncha. Himoyalangan joylarda issiqlikni ta'minlash va sozlash usullari.

	6-semestr
M13	**Meva-sabzavot o'simliklarni tuproq va havoning nisbiy namligiga bo'lgan talabi.** Havo va tuproq namligi tartiboti, uni ahamiyati. Himoyalangan joylarda yetishtiriladigan sabzavotlarni havo va tuproq namligiga talabi va ularni guruhlash. Havo va tuproq namligini ta'minlash va sozlash usullari. o'simliklarni sug'orish usullari ularni afzaligi va kamchiliklari. O'simliklarni tuproq namligiga talabi va uni turli omillarga bog'liqligi.
M14	**Himoyalangan yer inshootlardan unumli foydalanish va istiqbolli ekin almashinuvi.** Himoyalangan joylarda sabzavot ekinlaridan mahsulot olish uchun qo'llaniladigan yetishtirish usullari Sabzavotlarni urug' bilan ekish, ko'chat uslubini qo'llash, ochiq yerda yetilmay qolgan sabzavotlarni yetishtirib olish, majburlab o'stirish, o'simliklarni o'stirmay ushlab turish (konservatsiya).
M15	**Himoyalangan yerlarda qulupnay yetishtirish texnologiyasi.**
M16	**Sitrus mevali o'simliklarining kelib chiqishi, botanik tarkibi va tashqi muhit omillariga bo'lgan talabi.**
M17	**Sitrus mevali o'simliklarini ko'paytirishni biologik asoslari va ko'chatlarini yetishtirish texnologiyasi.**
M18	**Limonni, apelsin, mandarinni biologik xususiyatlari va himoyalangan yerlarda yetishtirish texnologiyasi.**
M19	**Issiqxonalarda qovun (Cucumis melo L.) va tarvuz (Citrullis vulgaris L.)yetishtirish** Issiqxonalarda yetishtirishga mo'ljallangan qovun nav va duragaylariga ta'rif. Qovun o'simligining agrobiologik xususiyatlari. Qovunni issiqxonalarda yetishtirishning eng samarali usullari. Qovun ko'chatlarini tayyolash muddatlari. O'simliklarga shakl berish usullari. Kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash choralari. Mahsulotlarni yig'ib olish, ularni qadoqlash va transportirovka qilish.
M20	**Issiqxonalarda bodring yetishtirish texnologiyasi** Bodringning oziq-ovqatdagi ahamiyati kelib chiqish makoni va biologik xususiyatlari.Yetishtirish muddatlari.Urug' sepish miqdorlari. Bodringni nav va duragaylari. Bodringni oziqlantirish va sug'orish. Kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash.Bodringlarni yig'ib olish muddatlari,ularni saqlash va transportirovka qilish.
M21	**Issiqxonalarda pomidor yetishtirish texnologiyasi.** Pomidorni oziq ovqatdagi axamiyati kelib chikish makoni va biologik xususiyatlari.Yetishtirish muddatlari.Urug sepish mikdorlari. Pomidorni nav va duragaylari.Pomidorniozlantirish va sug'orish. Kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash.Pomidorlarni yig'ib olish muddatlari,ularni saqlash va transportirovka qilish.
M22	**Issiqxonalarda achchiq qalampir yetishtirish texnologiyasi.** Achchiq qalampirni oziq-ovqatdagi ahamiyati kelib chiqish makoni va biologik xususiyatlari.Yetishtirish muddatlari.Urug' sepish miqdorlari. Achchiq qalampirni nav va duragaylari. achchiq qalampirni oziqlantirish va sug'orish. Kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash. achchiq qalampirni yig'ib olish muddatlari,ularni saqlash va transportirovka qilish.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: Amaliy (A) Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

	5-semestr
A1	Himoyalangan yer turlari va tuzilishi
A2	Issiqxonalarda havo gaz tartiboti
A3	Himoyalangan yerlarda issiqlik tartiboti
A4	Himoyalangan yerlarda havo va tuproq namligini tartiboti
A5	Himoyalangan joy inshootlarini qoplashda qo'llaniladigan yoruglik o'tkazuvchan materiallar va ularni xususiyatlari
A6	Himoyalangan yerlarda yorug'lik tartiboti
A7	Himoyalangan yerlarda o'simliklarni mineral oziqlantirish xususiyatlari
A8	Gidropon issiqxonalarni tuzilishi
A9	Agregatoponika uchun substratlar va oziqa ertimalar
A10	Ko'chatga talab va uni yetishtirish uchun himoyalangan maydonni aniqlash
A11	Sabzavot ko'chatlarini yetishtirish uchun biologik yoqilg'i, tuproq aralashmasiga bo'lgan talabni aniqlash.
A12	Himoyalangan yerlar uchun ko'chatlarni yetishtirish texnologik xaritasini ishlab chiqish
A13	Sitrus mevali ekinlarining morfologik tuzilishi
A14	Sitrus mevali o'simliklar ko'chatini yetishtirish va payvand qilish usullari
A15	Sitrus mevali bog'larni barpo qilish texnologiyasi bo'yicha hisob kitoblar
	6-semestr
A1	Ilg'or issiqxona-parnik xo'jaligida ko'chat yetishtirish texnologiyalari bilan tanishish.
A2	Ekin o'stiradigan inshootlar uchun ekinlarni aylanishi va inshootlardan foydalanish jarayonini tuzish.
A3	Mevali daraxt ko'chatlarini yetishtirish uchun o'g'itlarga bo'lgan talabni aniqlash
A4	Ilg'or meva-sabzavotchilik klasterida oynavand va plyonkali inshootlarning turlari va tuzilishi
A5	Himoyalangan yerlarda ayrim meva-sabzavot ekinlarini yetishtirish texnologiyasi
A6	Yerli inshootlarda sabzavotlarni yetishtirish usullari
A7	Himoyalangan yerlarda asosiy sabzavotlarni yetishtirish texnologik xaritasining agrotexnik qismini tuzish.
A8	O'simliklar uchun havoning turli komponentlarini (tarkiblarini) ahamiyati
A9	Issiqxona havosida inson va o'simliklar uchun zararli gazlarning chegaraviy konsentratsiyasi.
A10	Sitrus mevali o'simliklarini parvarish qilishda o'g'itlash va sug'orish me'yorlarini hisoblash
A11	Himoyalangan yerlarda Sitrus mevali o'simliklarga shakl berish va kesish
A12	Limon, Apelsin, Mandarinning asosiy standart navlarini tavsifi
A13	Laymni va Kinkanni morfologiyasi, asosiy standart navlarini tavsifi
A14	Sitrus mevali bog'larni barpo qilish texnologiyasi bo'yicha hisob kitoblar
A15	Sitrus mevali o'simliklarini parvarish qilishda o'g'itlash va sug'orish me'yorlarini hisoblash

IV. **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"Himoyalangan yer meva-sabzavotchiligi 1-2 qism" fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari
1	Tuproq aralashmasida sabzavot ekinlarini yetishtirishda foydalaniladigan o'g'itlar va ularni berish usullari.
2	O'simliklar uchun asosiy hayotiy omillarni ta'minlash zamonaviy usullari
3	Himoyalangan joy inshootlari va tuproqni sog'lomlashtirish usullari.
4	Sabzavot ko'chatlarini yetishtirishda qo'llaniladigan tuvakchalar, oziqali kubiklar va ularni tayyorlash
5	Sabzavotlarni tuproqsiz sharoitda yetishtirishda qo'llaniladigan neytral substratlar va ularni tayyorlash
6	Tuproq aralashmasida sabzavot ekinlarini yetishtirishda o'g'itlar berish usullari
7	O'simliklar uchun asosiy hayotiy omillarni ta'minlash
8	Issiqxonalarda asosiy sabzavotlarni kichik hajmli substratlarda yetishtirish xususiyatlari
9	Himoyalangan yerlarda qalampirni yetishtirishning zamonaviy texnologiyasi
10	Himoyalangan yerlarda ko'kat sabzavotlarni yetishtirishning zamonaviy texnologiyasi
11	Himoyalangan yerlarda poliz ekinlarini yetishtirishning zamonaviy texnologiyasi
12	Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalarlar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.
13	Himoyalangan yer sabzavotchiligini ahamiyati, uni vazifasi, xususiyatlari, ahvoli va rivojlanishi.
14	Issiqxonalarda havo va tuproq namligini tartiboti
15	Kichik hajmli plyonkali tonnellar ostida sabzavotlar yetishtirishning umumiy usullari
16	Sovuqbardosh ekinlarni yetishtirish texnologiyasi
17	O'tkazuvchan materiallar va ularni xususiyatlari
18	Yerli inshoatlarda sabzavotlarni yetishtirish usullari.
19	Kichik hajmli plyonkali qoplamalar ichidagi mikroiqlimning xususiyatlari
20	Issiqtalab ekinlarni yetishtirish texnologiyasi
Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan mavzularni normativ-huquqiy hujjatlar va o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish, ilmiy maqola, tezislar tayyorlash, amaliyotdagi mavjud muammolarni yechimini topish, fanning dolzarb muammolarini qamrab oluvchi loyihalar tayyorlash, o'rganilayotgan mavzu bo'yicha asosiy ilmiy adabiyotlarga annotasiya yozish kabi ko'rinishdagi ishlarni bajarish tavsiya etiladi.	

3	**VI.Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: "Himoyalangan yer sabzavotchiligi" fanini o'rganish jarayonida quyidagilarni bilishi lozim: – Himoyalangan yer sabzavotchiligining ahamiyati, vazifasi, xususiyatlari; – O'zbekistonda himoyalangan yer sabzavotchiligining ahvoli va rivojlanish istiqbollari; – ko'chat va sabzavotlarni yetishtirishda ta'minlanadigan asosiy mikroiqlim omillari, ularni sozlash; – ko'chat yetishtirish uslublari va usullari; – inshootlardan unumli foydalanishni tashkil qilish; – sabzavot ekinlarini yetishtirish usullari va texnologiyasini; – himoyalangan joylarda asosiy sabzavotlarning tashqi muhit omillariga munosabati, mikroiqlim sharoitlarini ta'minlashni; – inshootlarni va tuproq aralashmasini tayyorlash va ularni sog'lomlashtirish usullari bo'yicha ***tasavvurga va bilimga ega bo'lishi;*** - sabzavot ekinlarini tuproq aralashmasida va oziqa eritmalarida yetishtirish xususiyatlarini; - himoyalangan joylarda yetishtiriladigan va rayonlashtirilgan nav va duragaylarni; - ko'chat va sabzavotlarni yetishtirish texnologiyasini; - issiqxonalarda havo haroratini va namligini aniqlash; - mikroiqlim sharoitlarini sozlash; - ko'chat, o'g'it va issiqxona maydoniga bo'lgan talabni hisoblash; - parnik va issiqxonalarni isitish uchun biologik yonilg'i va tuproq aralashmasini hisoblash; - tuproq aralashmasini tayyorlash va uni sog'lomlashtirish; - issiqxonalarda o'simliklarni oziqlantirish va sug'orish; - ko'chatni tayyorlash va ekish usullari; - o'simliklarga shakl berish usullari; - asosiy sabzavot ekinlari parvarishlash ishlari va yetishtirish texnologiyasi; - hosilni yig'ishtirish, uni saralash, joylash va tashishusullari bo'yicha ***ko'nikmalarga va malakalarga ega bo'lishi*** talab etiladi.
4	– **VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5	**VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish vajoriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

Asosiy adabiyotlar:

1. D.S.Normurodov, B.X.Xalmirzayev, S.T.Sanayev, A.R.Raximov, K.Sh.Bozorov, Sh.I.Asatov. "Himoyalangan yer sabzavotchiligidan amaliy mashg'ulotlar". O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2021. – 248 b.
2. D.S.Normurodov, B.X.Xalmirzayev, S.T.Sanayev, A.R.Raximov, K.Sh.Bozorov, Sh.I.Asatov "Himoyalangan joy inshootlarining turlari". O'quv qo'llanma. SamDU nashri, Samarqand - 2021. – 196 b.

3. Зуев В.И, Асатов. Ш.И. О.Кадирходжаев, Атахаджаев А.А. "Химояланган жой сабзавотчилиги" Т-2018 й. (дарслик).

Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar

1. V.I.Zuyev, A.A.Ataxodjayev, Sh.I.Asatov, A.K. Kadirxodjayev, U.I. Akramov "Himoyalangan yer sabzavotchiligi" Darslik. Toshkent – 2014.-186b.
2. Yunusov S., Abdiyev Z. "Issiqxonalarda sabzavot ko'chatchiligi" *(darslik)*
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Meva –sabzavotchilik va uzumchilik sohasini isloh qilish chora-tadbirlar to'g'risida" qarori. PF-3709- Farmoni.// Xalq so'zi- 2006 yil 11 yanvar.
4. Azimov B.J., Bo'riev H.CH., Azimov K.B. - Sabzavot ekinlari biologiyasi. T., «O'zMEDIN» 2001.

Internet saytlari:

www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat partoli
www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
www.referat.ru.
www.bgreenpeace.org/gening/
www. biology.online org
www. biologycornet.com
www.Ziyonet.uz
www.library:breeding of animals and crop plants
www.megasearch.biz
www.farming.co.uk
www.agronomy.org
www samdu.uz
www.agrar.uz
www.kitoblar.uz
www toshdau.uz

Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil "24" avgustdagidagi 1 -son bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan/modul dasturi uchun ma'sullar:

Xayitov Mamadiyor Allayorovich - Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik" kafedra mudiri, dotsent.
Sulaymanov Oybek Madixonovich - Meva- sabzavotchilik va uzumchilik kafedra katta o'qituvchisi, fan o'qituvchisi

Taqrizchilar:

B.Xolmirzayev - Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Meva-sabzavotchilik va uzumchilik kafedrasi dotsenti, q.x.f. nomzodi.
S.T.Sanayev - Samarqand agroinnovatsiyalarva tadqiqotlar instituti professori, q.x.f..doktori.

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais –Sh.T.Xoliqulov

Kafedra mudiri: **M.A.Xayitov**

Institut o'quv uslubiy kengash raisi: **Sh.A.Mamasov**

Institut direktori: **T.F.Rajabov**

O'quv ishlar bo'yicha 1- prorektor: **prof. A.S.Soliyev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti 60811000 – Meva-sabzavotchilik va uzumchilik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun Himoyalangan yer meva-sabzavotchiligi 1-2 qism fanidan tayyorlangan fan dasturi va sillabusiga

TAQRIZ

Fan dasturi va sillabusida talabalarning Himoyalangan yer meva-sabzavotchiligi fani bo'yicha bilim va malakalarini egallashi, ko'nikmalarini shakllantirishiga qaratilgan mavzular qamrab olingan. Fan dasturi va sillabusda Himoyalangan yer sabzavotchiligi fanini o'qitishdan maqsad Himoyalangan yerlarda sabzavot ekinlarini jadal ilmiy asosda yetishtirishga qaratilgan tashkiliy, xo'jalik va agrotexnikaviy tadbirlarni hisobga olgan holda qishloq xo'jalik ekinlaridan himoyalangan yerlarda mo'l xosil olish uchun eng maqbul tadbirlarni belgilash va keng yoritish. Egallangan bilimlar bo'yicha, ko'nikma va malakalarni shakllantirish. Qishloq xo'jaligida yuqori va sifatli maxsulot olish uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash. Talabalarni tannarxi arzon, eksportbob sabzavotlarni yetishtirish uchun agrotexnik jarayonlar bilan tanishtirish va o'rganish va qo'llash texnologiyalarni joriy etish.

60811000 – Meva-sabzavotchilik va uzumchilik ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabalari uchun "Himoyalangan yer meva-sabzavotchiligi 1-2 qism" fani 5/6-semestrlarda rejalashtirilgan bo'lib, unda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlari mavzulari fan dasturi asosida tuzilgan, mavzular ketma-ketligi bir-birini to'ldirib, fanning barcha bo'limlarini qamrab olgan. Mustaqil ta'lim mavzulariga alohida e'tibor berilgan bo'lib ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mavzularida keltirilgan mavzular mustaqil ta'lim mavzulariga kiritilmaganligi talabalarning mustaqil ta'limlarda o'zlari mustaqil ravishda ishlashga qaratilgan.

Bundan tashqari fan dasturi va sillabusida keltirib o'tilgan adabiyotlarning ro'yxati o'zlarining 60811000 – Meva-sabzavotchilik va uzumchilik yonalishi tarkibi jihatdan sillabusda keltirilgan mavzularni ma'ruza va amaliy mashg'ulot hamda mustaqil ta'lim mavzularini o'zlashtirishda amaliy yordam beradi.

Umuman olganda fan dasturi va sillabusi 60811000 – Meva-sabzavotchilik va uzumchilik ta'lim yo'nalishi uchun Himoyalangan yer sabzavotchiligi 1-2 qism fanidan tuzilgan bo'lib, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan qo'yilgan barcha talablarga to'liq javob beradi va uni foydalanishlari uchun tavsiya etaman.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti dosenti, q.x.f. **B.Xalmirzayev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti 60811000 – Meva-sabzavotchilik va uzumchilik yo'nalishi talabalari uchun "Himoyalangan yer meva-sabzavotchiligi 1-2 qism" fanidan tayyorlangan fan dasturi va sillabusiga

TAQRIZ

Fan dasturi va sillabusida talabalarning Himoyalangan yer sabzavotchiligi 1-2 qism fani bo'yicha bilim va malakalarini egallashi, ko'nikmalarini shakllantirishiga qaratilgan mavzular qamrab olingan. Fan dasturi va sillabusda Himoyalangan yer meva-sabzavotchiligifanni o'qitishdan maqsad Himoyalangan yerlarda tomorqa sabzavot ekinlarni yetishtirishga yo'naltirilgan tashkiliy, xo'jalik va agrotexnikaviy tadbirlarni hisobga olgan holda qishloq xo'jalik ekinlaridan mo'l xosil olish uchun maqbul variantlarni belgilash. Egallangan bilimlar bo'yicha, ko'nikma va malakalarni shakllantirish. Qishloq xo'jaligida yuqori va sifatli maxsulot olish uchun himoyalangan maydonlar sharoitlari uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash. Talabalarni, tannarxi arzon, eksportbob sabzavotlarni yetishtirishda fan yutuqlaridankeng foydalanishni ilmiy asosda joriy etish.

60811000 – Meva-sabzavotchilik va uzumchilik ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabalari uchunHimoyalangan yer sabzavotchiligi fani 5-6-semestrlarda rejalashtirilgan bo'lib, unda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlari mavzulari fan dasturi asosida tuzilgan, mavzular ketma-ketligi bir-birini to'ldirib, fanning barcha bo'limlarini qamrab olgan. Mustaqil ta'lim mavzulariga alohida e'tibor berilgan bo'lib ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mavzularida keltirilgan mavzular mustaqil ta'lim mavzulariga kiritilmaganligi talabalarning mustaqil ta'limlarda o'zlari mustaqil ravishda ishlashga qaratilgan.

Bundan tashqari fan dasturi va sillabusida keltirib o'tilgan adabiyotlarning ro'yxati o'zlarining tarkibi jihatdan sillabusda keltirilgan mavzularni ma'ruza va amaliy mashg'ulot hamda mustaqil ta'lim mavzularini o'zlashtirishda amaliy yordam beradi.

Umuman olganda fan dasturi va sillabusi60811000 – Meva-sabzavotchilik va uzumchilik ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabalari uchun Himoyalangan yer meva-sabzavotchiligi fanidan tuzilgan bo'lib, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan qo'yilgan barcha talablarga to'liq javob beradi va uni foydalanishlari uchun tavsiya etaman.

Samarqand Agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti meva-sabzavotchilik va uzumchilik kafedrasi mudiri, professori, q.x.f. doktori. **S.T.Sanaev**

DEVONXONA VA ARXIV